

## Tanlov g'oliblari taqdirlandi



Joriy yilning 14 fevral kuni Zahiriddin Muhammad Boburning 539 yilligi munosabati bilan universitetimiz ijodkor talabalari o'rtasida "Eng yaxshi ijodiy she'r" tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tanlov davomida Hakamlar hay'atiga 20 nafar ijodkorning she'rlari taqdim etildi. Tanlovga kelib tushgan ijodiy ishlar (she'rlar) Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlariga mosligi nuqtai nazaridan saralanib, chuqur tahlil qilindi. Har bir she'r alohida o'rganildi va qizg'in muhokama qilindi, ijodkorlarning she'riy mahoratiga qarab ijodiy ishlar baholandi. G'oliblar universitet esdalik sovg'alari, diplom va pul mukofoti bilan taqdirlandi. Yakuniy natijalarga ko'ra:

**1-o'rin - Ro'zmetov Xursandbek ( universitet magistranti 500 ming so'm miqdorida pul mukofoti hamda 1-darajali diplom);**

**2-o'rin - Hamdamboeva Aziza (GIM fakul'teti 1-kurs talabasi 400 ming so'm miqdorida pul mukofoti hamda 2-darajali diplom);**

**3-o'rin - Qo'ldoshev Sarvarbek (ERB fakul'teti 2-kurs talabasi 300 ming so'm miqdorida pul mukofoti hamda 3-darajali diplom);**

